

“O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanini o‘qitishning interfaol uslublari” o‘quv-uslubiy qo‘llanma

O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markazning ilmiy xodimlari tomonidan 2022-yilda professor-o‘qituvchi, pedagoglar uchun o‘quv-uslubiy qo‘llanma tayyorlandi. Unga mualliflik huquqi (patent) ham olindi.

“O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanini o‘qitishning interfaol uslublari” nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanmada mavzularga mos ravishda interfaol metodlar tadbiiq qilinib, har bir mavzu uchun takrorlanmaydigan uslublar tizimli qo‘llanilgan. Unda ilk marotaba bir darsning o‘zida bir nechta interfaol uslubdan o‘zaro mantiqiy bog‘langan dars ishlanmalari tavsiya qilingan hamda aniq namunalar keltirilgan.

Zamonaviy ta’limda yoshlarning fuqarolik pozitsiyasi kuchaytirishda, mustaqil va kreativ fikrlaydigan, xalqaro maydonda raqobatbardosh kadrlar tarbiyalashda raqamli hamda interaktiv qo‘llanmalar muhim rol uynaydi.

